



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTORINING
BUYRUG‘I**

2023-yil “31” “Yanvar”

№ 19

Toshkent sh.

**Kadrlar tayyorlash sifatini kuchaytirish maqsadida bosqichma-bosqich
raqamlashtirishga o‘tish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-sonli va PQ-61-sonli, 2019-yil 6-mayda PQ-4310-sonli qarorlari, Sog‘liqni saqlash vazirining 2022-yil 15-oktabrdagi 287-sonli va Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o‘rinlarda Akademiya deb ataladi) 2022-yil 31-oktabrdagi 351-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan tartibni tatbiq qilish maqsadida **buyuraman:**

1. Barcha prorektorlar:

Akademiya faoliyat olib borayotgan barcha xodimlar davomatini maxsus bot “TTA tizimli boshqaruv” axborot tizimi orqali tasdiqlanishini; ishga uzrli sabablarsiz kelmagan va/yoki maxsus bot orqali ro‘yxatdan o‘tmagan xodimlar to‘g‘risida ma‘lumot kiritilishini ta‘minlansin.

2. Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi boshlig‘i (A.Musaxonov):

maxsus bot orqali monitoring jadval ko‘rinishda har hafta o‘tkaziladigan Apparat yig‘ilishida prezentatsiya ko‘rinishida taqdim qilsin; maxsus bot orqali nazorat qilish tizimida aniqlanadigan barcha kamchiliklarni bartaraf etib, Xemis tizimiga integratsiya qilish choralari ko‘rsin.

3. Akademiya Ilmiy kotibi (G.Ismailova) har oy o‘tkaziladigan Ilmiy kengashning “Turli masalalari”ga oy davomida davomat to‘g‘risidagi ma‘lumotlar o‘rnatilgan tartibda muhokamaga qo‘yilishini ta‘minlansin.

4. Xodimlar bo‘limi boshlig‘i (N.Ismatullayeva), Bosh buxgalter (B.Alijonova) va Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i (O.G‘aipov), Yuridik bo‘lim (S.Yusupova)lar:

xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga belgilangan tartibda o‘zgartirish kiritilsin;

O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda oylik maosh, rag‘batlantirish va ustamalarni belgilashda maxsus bot monitoring natijalarini inobatga olib, taklif kiritilsin.

Mazkur buyruqning ijrosining nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

Rektor



A.K.Shadmanov


Murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i



D.D.Achilov


KELISHILDI:

O'quv ishlari bo'yicha prorektor



Sh.A.Boymuradov

Bosh buxgalter




B.I.Alijonova

Reja-moliya bo'limi boshlig'i



O.U.G'aipov

Yuriskonsult



S.M.Yusupova

